O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“IQTISODIYOT, BOSHQARUV, SOLIQLAR VA SUG’URTA ” KAFEDRASI

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, oliy ta’lim a’lochisi Yorqin Abdullaev tavalludining 80 yillik yubileyi va ilmiy pedagogik faoliyatining 60 yilligiga bag‘ishlab o’tkazilgan

“Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami

Toshkent 2022 yil 18 mart

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“IQTISODIYOT, BOSHQARUV, SOLIQLAR VA SUG’URTA” KAFEDRASI

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, oliy ta’lim a’lochisi Yorqin Abdullaev tavalludining 80 yillik yubileyi va ilmiy pedagogik faoliyatining 60 yilligiga bag‘ishlab o’tkazilgan

“Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami

Toshkent 2022 yil 18 mart

Юқорида қайд этилган солиқ ислоҳотларининг татбиқ этилиши келгусида мамлакатда фаолият юритаётган корхоналарнинг молиявий-хўжалик фаолиятини солиққа тортишнинг оптимал тизимини шакллантириш учун қулай имконият яратади.

"ТАРТИБГА СОЛИШ ГИЛЬОТИНАСИ": ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИКНИ ОШИРИШ ИМКОНИЯТИ СИФАТИДА

Ж.Умирзоқов

Тошкент молия институти таянч докторанти

Иқтисодий ўсишдаги тўсиқларни бартараф этиш ва инвестицияларни жалб қилиш мақсадида амалиётга жорий этилган "тартибга солиш гильотинаси" принципи 1980 йилда Швецияда ишлаб чиқилган. Ушбу усулининг асосий гояси эса қисқа муддатларда амалдаги норматив-ҳуқуқий базани хатловдан ўтказиш ва унинг натижасида қонунчиликка зид бўлган (бир бирига зид бўлган), иқтисодий самарасиз, амалда ўз ахамиятини йўқотган, амалга оширилиши отртиқча харажатлар талаб қиладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни бекор қилиш хисобланади.

"Тартибга солиш гильотинаси" усулини амалга ошириш мақсадлари:

- инвестицияларни жалб этиш борасидаги кўп сонли ва самарасиз тартиб-қоидаларни тезда бартараф этиш учун сиёсий ва маъмурий харажатларни имкон қадар камайтириш;

- инвесторлар ва бошқа манфаатдор томонлар учун фаол инвестицион муҳитни таъминлаш;

- инвестицион муносабатларни тартибга солиш бўйича "хавфсиз" реестрни ўрнатиш орқали келгусида сифат назорати ва ҳуқуқни қўллаш учун барқарор инвестицион муҳитни таъминлаш жараёни моделини ишлаб чиқиш;

- институционал инфратузилмани яратиш, шу жумладан вазирликлараро мувофиқлаштириш ва ҳамкорлик механизмини ишлаб чиқиш, ислоҳотлар механизмини кучайтириш ва тартибга солиш ислоҳотларини самарали амалга ошириш мақсадида тартибга солиш таҳлилини ўтказиш имкониятини таъминлаш.

"Тартибга солиш гильотинаси" қандай амалга оширилади? Ушбу усулнинг бугунги кундаги талқини Jacobs, Cardowa & Associates[1] томонидан Швеция ва Жанубий Корея давлатлари тажрибасига асосланган холда ишлаб чиқилган.

[1] http://regulatoryreform.com/